

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS TESTLARI

A'zamjonova Farangiz Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika institute,

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15013728>

Annotatsiya. Mazkur maqolada PIRLS testlarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan.

Boshlang'ich sinflarga PIRLS matnlarini tuzish, uni qanday yo'l bilan o'quvchilarga tushuntirish, PIRLS testlari haqida ma'lumotlar, davlatlar o'rtasida PIRLS testlari bo'yicha reytingiga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolaning asosiy maqsadi PIRLS testlari qanchalik muhimligi, o'quvchilarning fikrlash doirasini sezilarli darajada o'zgartirishi haqida.

Global miqyosdagi ta'lim tizimini kuzatib borish va ularni bir-biriga solishtirish.

Tayanch so'zlar: PIRLS, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, xalqaro baholash, matn, test, topshiriq, metodika.

PIRLS TESTS IN PRIMARY GRADES

Abstract. This article aims to study the PIRLS tests. It discusses the development of PIRLS texts for primary schools, how to explain them to students, information about PIRLS tests, and the ranking of PIRLS tests among countries. In addition, the main purpose of the article is to show how important PIRLS tests are and how they significantly change the mindset of students. To monitor and compare education systems globally.

Keywords: PIRLS, logical thinking, critical thinking, international assessment, text, test, task, methodology.

ТЕСТЫ PIRLS В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. Целью данной статьи является изучение тестов PIRLS. Обсуждались составление текстов PIRLS для начальных классов, способы объяснения ученикам, информация о тестах PIRLS, рейтинги тестов PIRLS среди стран. Кроме того, основная цель статьи — о том, насколько важны тесты PIRLS, как они могут существенно изменить мышление учащихся. Отслеживание и сравнение систем образования во всем мире.

Ключевые слова: PIRLS, логическое мышление, критическое мышление, международная оценка, текст, тест, задание, методика.

O'zbekistonda ta'lim tizimi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Turli xil fan olimpiadalaridagi bellashuvlarda yoshlarimiz faxrli o'rinlarni egallashmoqda.

Ayniqsa, ta'lim tizimida 4-sinf o'quvchilari o'rtasida matnni oqib-tushunish ya'ni PIRLS testlari keng miqyosda ommalashib bormoqda. Pirls testlaridan O'zbekiston 2021-yildan boshlab foydalanishni boshladi. Bu testlar o'quvchilarda mantiqiy fikrlash doirasini oshiradi. Bundan tashqari, hozirgi kunda o'quvchilar "4K" modeli asosida o'qitilmoqda. Bunda kollaboratsiya – jamoaviy ishlash, mantiqiy fikrlash, kritik fikrlash ya'ni tanqidiy fikrlash o'quvchi yoshlarda rivojlantirilmoqda. O'qituvchilar o'quvchilarni guruh qilib ishlatishdan asosiy maqsad ularda jamoaviy axloqni, jamoada o'z fikrini mustaqil tarzda bayon qila olish qobiliyatini shakllantirish.

PIRLS – 4-sinf o'quvchilari o'rtasida matnni o'qib-tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimi. PIRLS xalqaro baholash tizimi har 5 yilda 1 marta o'tkaziladi.

Bu baholash tizimi o'tkazilishi 2001-yildan boshlangan. Keyinchalik 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilib kelinmoqda.

PIRLS testlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanishadi:

1. Yangi ta'lim tizimi sifatini kuzatib borish;
2. Global miqyosdagi ta'lim tizimini kuzatib borish hamda ularni bir-biriga solishtirish;
3. Ta'limning zaif tomonlarini aniqlash va bo'sh o'rinlarni to'ldirish;
4. O'qish va o'qitishni o'rgatish.

PIRLS qoidalariga muvofiq, badiiy yoki boshqa turdagi matnlarni o'qiyotganda o'qish darajasining 4 ta guruhi baholanadi:

- aniq korsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni to'g'ri shakllantirish;
- ma'lumotlarni tahlil va sintez qila olish;
- matn mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qila olish.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja – 625 ball va undan yuqori;

Yuqori daraja – 550 ball;

O'rta daraja – 475 ball;

Quyi daraja – 400 ball.

PIRLS matni va ular asosidagi topshiriqlar

Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi

Xudoyberdi To'xtaboyev

(Hikoya)

Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli soʻz aytish bahsini oʻtkazmoqchi boʻlibdi. Oʻsha kundan boshlab chiroyli soʻz, goʻzal soʻz degan gaplar odamlarning ogʻzidan tushmay qolibdi. Ana shu gaplar bahsga aylanib, katta bir kengash oʻtkazilibdi. Kengash butun mamlakatga eʼlon qilingan ekan. Bir dehqon yigit men ham qatnashay, sovringa ega boʻlsam, bir qoʻshhoʻkiz olardim, deya niyat qilibdi. Shohona darvoza oldiga kelib, qoʻlidagi oʻroq, yelkasidagi ketmonni yerga qoʻyib, “Bismilloh”, deb ichkari kirib, safga qoʻshilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan. Oʻz taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan oʻtirgan shohga qoʻlini koʻksiga qoʻyib, taʼzim qilib salom yoʻllabdi. Bahsni saroy aʼyonlari baholab oʻtirishar ekan. Shunda baxsda qatnashayotgan bir kishi oʻrnidan turib:

–Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yorradigan hakamlar qarsak chalib olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi.

Navbat dehqon yigitga kelibdi.

–Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qoʻlini koʻksiga qoʻyibdi.

Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa oʻrnidan turib qarsak chalibdi.

–Shohanshohim, – deb soʻrabdi hakamlardan biri. – Birinchi ishtirokchi oʻz soʻzini aytganida yengilgina qarsak chaldingiz, ikkinchi qatnashchi soʻzini aytganida esa oʻrningizdan turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – hakamlarga ayting, – debdi.

–Aslida ikkovlari ham foydali soʻzni aytishdi, birinchisi “yomonlik” deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek boldi. Ikkinchisi yaxshilik degan soʻzni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek boldi. Shuning uchun oʻrnimda turib qarsak chaldim. Toʻgʻri soʻzni, chiroyli soʻzni yoqimli qilib aytgani uchun sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.

1-topshiriq: Shoh nima uchun bunday farmon berdi?

.....

.....

2-topshiriq: Mavzu yuzasidan quyidagi soʻzlarga “Sinkveyn” tuzing.

Shoh, dehqon, amaldor

Namuna:

1. Shoh
2. Farmon chiqaruvchi shaxs
3. Adolatli inson.

3-topshiriq: “Tushunchalar tahlili” metodi orqali soʻzlarga izoh bering.

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Tushuncha	Mazmuni
Shoh	
Amaldor	
Dehqon	
Yaxshilik	
Yomonlik	

4-topshiriq: “Yaxshilik yerda qolmas” mavzusida kichik hikoya yozing.

.....

5-topshiriq: Savolga yozma tarzda javob bering va javobingizni izohlang.
Adolat deganda nimani tushunasiz?

.....

6-topshiriq: Yaxshilik va yomonlik haqida maqollardan, hikmatli soʻzlardan ayting.

1–.....

2–.....

3–.....

7-topshiriq: “Yaxshilik qil!” deb kim aytgan?

A).Shoh

B).Dehqon

C).Amaldor

8-topshiriq: Ushbu hikoyaning asosiy gʻoyasi nima?

.....

9-topshiriq: Tasavvur qiling siz oʻsha shohning oʻrnidasiz. Siz qanday yoʻl tutgan boʻlardingiz? Fikringizni yozma bayon eting.

.....


10-topshiriq: Asar qahramonlari haqida yozing.

Shoh–.....

Dehqon–.....

11-topshiriq: Asar muallifi Xudoyberdi Toʻxtaboyev ijodi haqida nimalarni bilasiz?

12-topshiriq: Insonga xos bo'lgan ijobiy xislatlarni "Klaster"da ifodalang.



Endi savol berib ko'raylik, PIRLS bizga nima berdi? PIRLS tizimi eng, avvalo, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini oshiradi. Matnning tub maqsadi nima ekanligini tushunishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, kritik fikrlashga ham yordam beradi. Agar o'quvchi tanqidiy fikrlay olsa, demak u matnni to'liq tushungan.

PIRLS xalqaro tizimi O'zbekistonda ham ancha samara bermoqda. PIRLS testlari kirib kelgandan beri o'quvchilarda ham, o'qituvchilarda ham fikrlay olish darajasi sezilarli ravishda yuqoriladi.

PIRLS testlari 2001-yildan boshlab o'tkazila boshladi va har 5 yilda bir marta o'tkaziladigan bo'ldi. 2001-yilda o'tkazilganda 35 ta davlat qatnashdi.

Reyting	Mamlakat	O'rtacha bali
1	Shvetsiya	561
2	Niderlandiya	554
3	Angliya	553
4	Bolgariya	550
5	Latviya	545

Oxirgi 35-o'rinda esa Beliz 327 ball bilan.

Ikkinchi marotaba 2006-yilda esa 215000 ga yaqin o'quvchilar 40 davlatdan qatnashishdi.

Reyting	Mamlakat	O'rtacha bali
1	Rossiya	565
2	Gon Kong	564
3	Kanada (Alberta)	560

Bundan ko'rinib turibdiki, Rossiya 14-o'rindan 1-o'ringa chiqib oldi.

2006-yildagi tadqiqotda baholash testlari 4 jarayonda ko'rib chiqildi.

1. Aniq ma'lumot.
2. To'g'ri xulosa.
3. G'oya va ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish va umumlashtirish.
4. Til va matn elementlarini to'g'ri qo'llay olish.

2011-yilga kelib, PIRLS testlarida ishtirok etuvchilar soni 45 mamlakatdan 325000 nafar o'quvchini tashkil etdi.

PIRLS-2011 tadqiqotida 571 ball bilan Gon Kong 1-o'ringa chiqib oldi. Biz ta'lim dasturidan foydalanayotgan Finlandiya esa 3-o'rinni egalladi.

PIRLS-2016 tadqiqotida esa 581 ball bilan Rossiya davlati eng yuqori natijani ko'rsatdi.

PIRLS-2021da esa O'zbekiston ham ishtirok etib, 57 mamlakatdan 49-o'rinni egalladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, PIRLS testlari o'quvchilarimizda mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, nutqini mustaqil bayon qila olish imkonini beradi. Bu testlar nafaqat fikrlash doirasini oshiradi, balki boshqa davlatlar bilan ham qiyoslab beradi. Sof raqobatni yuzaga ketiradi.

REFERENCES

1. K.Qosimova. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent O'qituvchi 2010-yil
2. M.Umarova. X.Xamrakulova. R. Tojiboyeva 3-sinf O'qish kitobi 4-nashri "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2019-yil
3. A.Xoliqov. "Pedagogik mahorat" Toshkent. Iqtisod-moliya. 2010
4. T.Ashrapova "Ona tili o'qitish metodikasi" T "O'qituvchi" 2001
5. PIRLS- Wikipediya